



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil “5” iyun

01-17793 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining  
11-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«29» may 2024-yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymurodov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a‘zolari  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi tomonidan 2023-2024-o‘quv yilida olib borilgan ma‘naviy –ma‘rifiy ishlar holati, muammolar, yechimlar.

Ma‘ruzachi – Yoshlar masalalari va ma‘naviy ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor Bobomuratov Turdikul Akramovich.

2. Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti hisoboti.

Ma‘ruzachi –Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani Salomova Feruza Ibodullayevna.

3. Biotibbiyot texnologiyalar markazi hisoboti.

Ma‘ruzachi – Akademiyaning Biotibbiyot Markazi bo‘limi boshlig‘i A.A.Abdullayev.

4. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi –Komissiya raisi.

5. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachilar – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

6.Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan maqullandi.

## QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda – Akademiya) jamoasi tomonidan 2022-2023 o'quv yilida olib borilgan ma'naviy – ma'rifiy ishlar holati, muammolar, yechimi" mavzusi bo'yicha, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. "Sport klubi" faoliyatini samarali tashkil etilishi, moliyalashtirish ishlari hamda moddiy-texnik imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni kuchaytirilsin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.D.Dustmurodov, "Shifokor" sport majmua bo'limi boshlig'i Sh.F.Yermatov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov, Bosh buxgalter B.I.Alijonova.**

**Muddat: 2024-yil iyun-sentabr.**

1.2. 2-o'quv binosini Talabalar turar joyiga moslashtirilsin va 850 ta yangi yashash o'rinlari tashkil etilsin. Talabalar turar joylarida talabalar uchun sharoitlarni yaxshilash choralari ko'riqsun va moddiy texnik imkoniyatlari kuchaytirilsin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.D.Dustmurodov, Talabalar turar joyi direksiyasi direktori S.U.Ruzmetov.**

**Muddat: 2024-yil iyun-iyul.**

1.3. "Tyutorlar maktabi" faoliyatini kuchaytirish bo'yicha ishlar jadallashtirilsin. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarida tyutorlar ishtiroki ta'minlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i A.U.Aliqulov.**

**Muddat: 2024-2025 o'quv yillari davomida.**

1.4. Yuqori kurs talabalariga biriktirilgan murabbiylar faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar kuchaytirilsin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, F.I.Salomova, A.A.Xamrayev, S.U.Aliyev, J.X.Tursunov).**

**Muddat: 2024-25 o'quv yili davomida.**

1.5. "Talabaga ko'mak" shtablarini tashkil etilishi va yangi o'quv yili uchun 1000 ta yangi **ijara xonadonlarining** manzilli ro'yxatlarini shakllantirishini ta'minlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Talabalarni tarar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i A.U.Aliqulov.**

**Muddat: 2024-yil iyun-avgust.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi "Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti hisoboti" mavzusi bo'yicha Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani Salomova Feruza Ibodullayevnaning hisoboti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakultetiga qarashli 10-o'quv binoni ta'mirlash, zamonaviy o'quv

va texnik vositalar bilan jihozlash, o'quv xona va foyelarni fakultet yo'nalishini inobatga olgan holda ko'rgazmali ma'lumotlar bilan bezash ishlari amalga oshirilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Moliya iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.I. Do'smuradov, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekani F.I.Salomova, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

2.2. Barcha kafedralarda har bir fan doirasida joriy, oralik va yakuniy nazorat natijalarining tahlili o'tkazilishi va Hemis tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ishlar olib borilishi kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekani F.I.Salomova, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.3. Barcha fakultetlar kafedralarida o'quv va ilmiy ishlarni yuqori pog'onaga ko'tarish va zamonaviy talablarga javob beradigan darajada olib borish maqsadida xorijiy ta'lim muassalari bilan hamkorlikda xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari yaratilishi, magistratura mutaxassisliklari va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, xalqaro va mahalliy ilmiy loyihalar tanlovida faol qatnashishi, xodimlarni nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy markazlarga stajirovka o'tash uchun yuborish, shuningdek, nufuzli xorijiy o'quv va ilmiy maskanlaridan akademiya professor-o'qituvchilarni jalb etish hamda xamkorlikda seminar-trening, master - klass va integral ma'ruzalar tashkil etilishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

2.4. Professor - o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish rejasi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin va barcha kafedra xodimlari tomonidan makola va ilmiy mahsulotlari Scopus, Web of Science tizimlariga kiritilgan jurnallarda chop etilishi va yillik rejalari bajarilishiga, ayniqsa xorijiy mutaxassislar bilan hammuallifligiga alohida e'tibor qaratilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani F.I. Salomova, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.5. Barcha kafedralarda yosh pedagoglar tajribali professor-dotsentlarga biriktirib kuyilsin va muntazam ravishda mahorat darslari olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani F.I. Salomova, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.6. Akademiya raqamlashtirish ishlari amalga oshirilishi va hujjatlar elektron almashinuvi tizimi muntazam ishlab turishini ta'minlash maqsadida barcha bo'lim va dekanatlardagi ishlar jarayoni (davomat, o'zlashtirish, me'yoriy hujjatlar va h.k) to'liq raqamlashtirilgan holda olib borilishi va nazorati kuchaytirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, MBIN va MB boshlig'i D.D.Achilov, Akademiyaning barcha rahbar va mas'ul xodimlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.7. Talabalarni ilmiy-tadqiqot izlanishlarga (to'garak, olimpiada, konferensiya va boshqa tanlovlarga) jalb etish va saralash natijasida ularni nomdor stipendiyalarga tayyorlash ishlari faollashtirilsin va fakultet ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama o'tqazilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.8. Akademiyaning bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida oliy ta'limdan keyingi ta'lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish hamda kafedralarda olib qolish maqsadida tashviqot va seleksiya ishlari samaradorligi oshirilishi ta'minlansin .

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: doimiy.**

2.9. Barcha kafedra xodimlarining shaxsiy ish rejasida belgilangan o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy mahsulotlar chiqarish rejasini bajarilishini nazorat qilinishi, muntazam ravishda monitoringini olib borilishi hamda fakultet kengashlarida ko'rib chiqilishi ta'minlansin, shuningdek, rejasi bajarilmagan xodimlarga intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi inobatga olinsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Mo'minova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024- yil davomida.**

2.10. Barcha Akademiya kafedralarida xodimlarning ingliz tilini bilish darajasini oshirish va sertifikatga ega bo'lishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin, shunindek, Akademiya tomonidan tashkil qilingan "Til markaziga" xodimlarning ishtiroki kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

3. Kun tartibining uchinchi masalasi bo'yicha "Biotibbiyot texnologiyalar markazi hisoboti" Akademiyaning Biotibbiyot Markazi bo'limi boshlig'i A.A.Abdullayevning hisoboti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

3.1. Akademiya ilmiy izlanishlarning samarasini oshirish hamda mavjud ilmiy asbob-uskunalardan unumli foydalanish maqsadida barcha kafedralar va ilmiy izlanuvchilarga Biotibbiyot texnologiyalar markazi laboratoriyalari imkoniyatlari haqida ma'lumot yetkazilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Biotibbiyot texnologiyalar markazi bo'limi boshlig'i A.A.Abdullaev.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

3.2. Biotibbiyot texnologiyalar markazi laboratoriyalari imkoniyatlari haqidagi taqdimot barcha kafedralar uchun tasdiqlangan reja asosida olib borilishi ta'minlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, Biotibbiyot texnologiyalar markazi bo’limi boshlig’i A.A.Abdullaev.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

3.3. Biotibbiyot texnologiyalar markazi imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar barcha boshqa tibbiy va Oliy tibbiy muassasalarga yetkazilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, Biotibbiyot texnologiyalar markazi bo’limi boshlig’i A.A.Abdullaev.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

3.4. Biotibbiyot texnologiyalar markazi xodimlarining murakkab asbob-uskunalarda ishlash bo’yicha ilmiy-amaliy kompetensiyalarini oshirish maqsadida nufuzli ilmiy markazlarda malakalarini oshirish bo’yicha ishlar yo’lga qo’yilsin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, Biotibbiyot texnologiyalar markazi bo’limi boshlig’i A.A.Abdullaev.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

3.5. Biotibbiyot texnologiyalar markazi laboratoriyalarining har bir xonalarida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hamda qo’llaniladigan reaktivlarning ruyxati to’liq shakllga keltirilishi ta’minlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, Biotibbiyot texnologiyalar markazi bo’limi boshlig’i A.A.Abdullaev.**

**Muddat: 2024-yil davomida.**

4. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o’qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo’yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.17 – Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo’yicha farmakologiya kafedrasida dotsenti D.D.Achilov, 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo’yicha Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida dotsenti D.K.Rasulova, 14.00.27-Xirurgiya ixtisosligi bo’yicha 1-son Umumiy va bolalar jarrohligi kafedrasida dotsenti Q.J.Matmurotov, 14.00.01-Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo’yicha Akusherlik va ginekologiya kafedrasida dotsenti Z.A.Muminova, 14.00.31-Urologiya ixtisosligi bo’yicha Urologiya kafedrasida dotsenti U.A. Xudaybergenov, 14.00.05-Ichki kasalliklar ixtisosligi bo’yicha 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrasida dotsenti D.K.Kenjabaev, 14.00.27- Xirurgiya ixtisosligi bo’yicha 1-son fakultet va gospital jarrohlik kafedrasida dotsenti M.R.Karimov nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So’ng saylov o’tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

5. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o’quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo’yicha O’quv-uslubiy bo’limi boshlig’i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo’yildi.

6. Turli masalalar yuzasidan O’quv ishlari bo’yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, O’quv-uslubiy boshqarma boshlig’i F.X.Azizova, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i R.I.To’raqulovlar so’zga chiqdilar.

6.1. “Virus bilan bog’liq sirrozli bemorlarda mikrobiotani qiyosiy tahlil qilish” (Сравнительный анализ микробиоты у пациентов с вирус-ассоциированными

циррозами)» nomli O‘zbekiston-Belarus qo‘shma fundamental loyihasi (rahbarlar:O‘zbekiston Respublikasi tomonidan professor L.N.Tuychiev, Belarusiya Respublikasidan dotsent Ye.V.Voropaev) Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etishga tavsiya etilsin.

6.2.“Gipoksik sindromni korreksiyalashda qo‘llanadigan yangi kombinirlangan uslubning patogenetik asoslari” (Патогенетические основы нового комбинированного способа коррекции гипоксического синдрома) nomli O‘zbekiston-Belarus qo‘shma fundamental loyihasi (rahbarlar:O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Normal va patologik fiziologiya kafedrasini mudiri professor B.O‘.Irisqulov, Belarusiya Respublikasidan Grodnen tibbiyot universitetining Normal va patologik fiziologiya kafedrasini mudiri professor V.V.Zinchuk) Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etishga tavsiya etilsin.

6.3.Toshkent tibbiyot akademiyasining IL-5221091515-sonli “Post-COVID-19 bilan og‘rigan komorbid patologiyali bemorlarda reabilitatsiya texnologiyasini ishlab chiqish” nomli ilmiy-amaliy grant loyihasi bo‘yicha taqdim etilgan yakuniy hisoboti (Grant rahbari – t.f.d., dotsent G.N.Sobirova) Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etishga tavsiya etilsin.

6.4.Bolalar kasalliklari kafedrasini dotsenti D.T.Abdullaeva rahbarligidagi «Bolalarda differensiyalashgan biriktiruvchi tukima displaziyasini tashxislash uchun innovatsion texnologiyasini ishlab chikish» nomli ilmiy loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etishga tavsiya etilsin.

6.5.Toshkent tibbiyot akademiyasi Travmatologiya va ortopediya, HDJ va neyroxirurgiya kafedrasini professori S.U.Asilova rahbarligidagi «Turli etiologiyali suyak patologiyasi va destruktiv uzgarishlari bulgan bemorlarda superkalsin kullanishining klinik asoslanishi» nomli Start-app loyihasi tasdiqlansin va Toshkent tibbiyot akademiyasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilsin (moliyalashtirish summasi – 279 000 000 so‘m. Loyiha rahbari: S.U.Asilova. Muddat – 12 oy).

6.6.Toshkent tibbiyot akademiyasi Odam anatomiyasi va OXTA kafedrasini assistenti Nortaeva Nilufar Abdiraximovna nomzodini Janubiy Koreyaning Seul shahridagi “Medical University of South Korea” Universitetiga bir oylik muddatga stajirovkaga borib kelishiga tavsiya etilsin.

6.7.Toshkent tibbiyot akademiyasi Odam anatomiyasi va OXTA kafedrasini assistenti Nortaev Azamat Begmatovich nomzodini Janubiy Koreyaning Seul shahridagi “Medical University of South Korea” Universitetiga bir oylik muddatga stajirovkaga borib kelishiga tavsiya etilsin.

6.8.Toshkent tibbiyot akademiyasi raqamli ta’lim texnologiyalarni joriy etish bo‘limi boshlig‘i X.A.Muxiddinov rahbarligida tayyorlangan “TMA Mobile” nomli Start-app loyihasi tasdiqlansin va Toshkent tibbiyot akademiyasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilsin (moliyalashtirish summasi - 477 651 000 so‘m. Loyiha rahbari: Muxiddinov Xurullo Akbaralievich. Muddat -12 oy).

6.9.Toshkent tibbiyot akademiyasiga biriktirilgan Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomaligi texnikumlari direktorilarining 2023-2024 o‘quv yilida amalga oshirilgan ishlar hisobotlari tasdiqlansin.

**Mas’ul: Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomaligi texnikum direktorilari**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

6.10. Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan Akademiyaning ilmiy hamda o‘quv mahsulotlarini 5 oylik solishtirma tahlilini inobatga olgan holda salbiy ko‘rsatkichlarda ega bo‘lgan kafedralar faoliyati bo‘yicha kafedra mudirlari kerakli choralar ko‘rishlari zarurligi tug‘risida ogohlantirilsin.

6.11. Akademiya budjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga 2023-yil davomida moliyalashtirilgan “UNIHOSTEL” Start-app loyihasi to‘liq yakunlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Mazkur loyiha yakunlanishi munosabati bilan yaratilgan Ilovani TTAAsida joriy etish chora-tadbirlarini ta‘minlash maqsadida quyida keltirilgan xodimlar Ilovaning samarali ishlatilishiga va joriy etilishi jarayoniga mas‘ul etib belgilansin:

1. TTJ direksiyasi direktori (S.U.Ruzmetov): Ilovani talabalar turar joylarida to‘liq joriy etishga mas‘ul.

2. Raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish bo‘limi boshlig‘i (X.A.Muxiddinov): Ilovani texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yuzaga kelgan vaziyatlarga qarab tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar qo‘shish, Ilovani TTA TTJ hayotiga texnik jihatdan to‘liq joriy etilishi va ishlashiga mas‘ul.

3. TTJ direksiyasi iqtisodchi-buxgalteri (N.Yoqubov): Ilova orqali talabalarni TTJlarga joylashtirilishini va ular tomonidan amalga oshiriladigan ijara to‘lovlarini o‘z vaqtida, to‘liq to‘lanishi, shuningdek ijara to‘lovlarini to‘lanishidagi hamkorlar bilan tegishli hisob-kitoblarni olib borilishiga mas‘ul.

4. Yoshlar masalalari bo‘yicha birinchi prorektor va Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha birinchi prorektorlar UNIHOSTEL ilovasini to‘liq joriy etilishi ustidan nazorat olib borsinlar.

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.**

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**